

O‘ZBEKISTONDA QQS GA RO‘YXATGA OLISH ASOSLARI: VAZIRLAR MAHKAMASINING 595-SONLI QARORI ASOSIDA

Po‘latov Sherzodbek Oybek o‘g‘li

o.sh.pulatov@kokanduni.uz

Annotatsiya Mavzuda O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentabrdagi 595-sonli qarori muhokama qilinadi. Unda qo‘shimcha qo‘shilgan qiymat solig‘iga (QQS) alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, unda shaxsiy ro‘yxatga olish tartib-taomillari belgilab berilgan, hujjatlarni o‘z vaqtida taqdim etish va to‘g‘ri rasmiylashtirishga urg‘u berilgan. Qaror soliq to‘lovchilar uchun tegishli choralar va tekshirish darajalariga ega risklarni toifalarga ajratish tizimini joriy qiladi. Unda rioya qilmaslik oqibatlarini va QQSni ro‘yxatdan o‘tkazishni bekor qilishga olib keladigan holatlar ko‘rib chiqiladi. Hujjatda ro‘yxatga olish jarayonini soddalashtirish uchun avtomatlashtirilgan identifikatsiya tizimi ham joriy etilgan. Umuman olganda, qaror QQSni ro‘yxatdan o‘tkazish va ularga rioya qilish uchun mustahkam huquqiy bazani yaratib, O‘zbekistonda soliq qonunchiligining to‘g‘riligi va ularga rioya qilish muhimligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar Qo‘shimcha qiymat solig‘i, avtomatlashtirilgan identifikatsiya tizimi, soliq qoidalari, muvofiqlik darajalari va huquqiy baza.

Mazkur nizomda qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha ro‘yxatni o‘tkazish talablarini belgilaydi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazishga davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. QQS uchun hujjat topshirganlar qonunda belgilangan muddatdan kechiktirmasdan ariza berishi shart. QQS guvohnomasi faol bo‘lgan soliq to‘lovchilar faqatgina hisob varaq-fakturalar asosida ruxsat olingan tavar va xizmatlar bo‘yicha hisobga olishi mumkin. Soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tmagan QQS to‘lovchilari QQS hisobga olmasdan to‘laydi. QQS uchun ro‘yxatdan o‘tish uchun

o'rinda soliq organlariga ariza berish, soliq xatarlarini tekshirish, ro'yxatdan o'tkazish yoki uni rad etish bo'yicha qaror qilish kerak, QQS to'lovchi uchun QQS raqamini berish, individual ro'yxat raqamini tushirilgan guvohnomani yaratish va uni QQS to'lovchiga berish. Tavar va xizmatlar xarid qilganda realizatsiya qilgandagi hisob kitoblar hisob varaq-fakturalaganda, QQS to'lashda yoki hisobga olishda, QQS hisob va hisobotlarida QQS raqamini shu keltirilgalarda yozilishi kiritilishi shart. QQS ga o'tishi majbur bo'lgan soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish yani ularni soliq xavfi tekshirmasdan ro'yxatga olinadi va guvohnoma avtomat beriladi. Ularga aylanmadan soliq to'lamaydiganlar, O'zb. Res. hududida tovarlarni va xizmatlarni realizatsiya qiluvchi chet el yuridik shaxslari agar O'zbekistonda realizatsiya qilsa. Faoliyatni O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari. Bu keltirilgan subyektlarni soliq organlari tomonidan tekshirilib boriladi va QQS bo'yicha muamolar topilsa ularning guvohnomasi to'xtatib turiladi. O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga muvofiq aylanmadan soliq to'lashni xohlamagan yuridik shaxslar, soliq davrida realizatsiya qilishdan tushgan daromadni 100 mln oshgan YTT lar, ixtiyori QQS to'lovchilari bo'lishi mumkin. Shu keltirilgan subyektlar ro'yxatni olishi uchun QQS solig'ini to'laydigan oyini boshidan 7 kun oldin kechiktirmasdan arizasini soliq organlariga topshirishi kerak. Arizani soliq organiga elektron shaklda shaxsiy kabinet orqali jo'natadi va jo'natgan paytidan soliq organi qabul qilgan hisoblanadi. Soliq organi QQS uchun jo'natilgan arizani 7 kun ichida ko'rib chiqadi bunga soliq to'lovchining rahbari, ta'sis ichilari va moliyaviy boshqaruv geobollashgan shaxslari kimligi oldin soliq to'lashdan bosh tortmaganni, soliqdan qarzlari yo'qmi, kompaniyasi yaqinda bankrot deb boshqa kompaniya ochmayaptimi va oshiqcha tavakkalchi emasligi tekshiriladi, joyga chiqqan holda soliq to'lovchini manzili tekshiriladi, bankdagi operatsiyalari va faoliyatiga mos narsalar olib sotadimi ular bir-biriga mosligini o'rganadi, tavar va xizmatlarini sotish sumalarini soliqqa berganmi o'sha hisobotlarni va undagi aktivlarni boyliklarini tekshiradi, o'zini joyi bormi yoki soliq kodeksi tomonidan ro'yxatdan o'tgan ijara to'lovchiligi tekshiradi, ularni omborini savdo joylarini va uning ishlab chiqarishiga

asos bo'ladigan aktivlari tekshiriladi. Agar soliq to'lovchining o'z hisobida yeri yo'q bo'lsa ijarada turgan ofisi yoki tekinga olganlik haqida hujat ko'rsatilishi kerak va bu maydon 18 kvadrat metrdan kam bo'lmasligi kerak.

Berilgan ma'lumotlarni tekshirishdan so'ng uni 3 xavf turiga bo'linadi

Soliq xavfining yuqori darajasiga ega soliq to'lovchi;bu toifaga raxbari ta'sischi yoki moliyaviy boshqaruvchisi shaxsi aniqlanmaganda yoki tuzilgan shartnomalari yagona mehnat tizimida tasdiqlanmagan bo'lsa,soliq to'lovchini manzili bo'lmaganda yoki u xatto bo'lganda,o'zini binosi bo'lmay turib olgan ijaraga olgan yoki tekinga olgan joyini manzili aniqlanmaganda va huati bo'lmaganda,soliqdan qarzi bo'lganda, raxbari boshqa kompaniyada ham raxbar bo'lsa o'sha

Kompaniyaning soliqdan qarzi yoki soliq hisobtlarini jo'natmaganligi,olib sotayotgan narsalari faoligiga tegishli bo'lmagan hollarda yani bir-biriga mos kelmaganda,yoki muqaddam bankrot deb topilgan kompaniyani raxbari bo'lganda,Aksiztavarlarning litseniyasi talablari buzilganda,soliq to'lamasdan javobgarlikka tortilgan raxbar va ta'sischi agar 50% ulishi ko'p bo'lsa.

Soliq xavfining o'rta darajasiga ega soliq to'lovchi;ohirgi 12 oy ichida soliq hisobtlarini o'z vaqtida topshirmaganligi,xomlari yoki yo'nalishchilarini soni 4 dan kam bo'lganda,soliq to'lovchini faoliyatiga bog'liq savdo do'konlari ombolari yoki moddiy texnik bazasi bo'lmaganda,Aksiztavarlarini electron hisoblagichlari bo'lmaganda,aroq ishlab chiqarmaydigan tashkilotlarda iste'mol etil spirtidan (uzum va rezavor meva etil spirtidan tashqari) likyor-aroq mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha mavjud yillik ishlab chiqarish quvvatlaridan o'rnatilgan quvvatlarning 50 foizidan kam bo'lganda qo'shiladi.

Soliq xavfining past darajasiga ega soliq to'lovchi bu turga tepadagi 2 la turga kiritiladigan belgilar topilmasa bu turga kiritiladi. Hujatlarni tekshirgandan so'ng 2 ish kunida 3 xil turdagi javob berishi kerak soliq to'lovchiga.Bunda soliq xafvi yuqori bo'lganlarga rad etiladi ,soliq xafvi o'rtacha deb topilganlarga shart bilan beriladi yani kelayotgan 12 oyda soliq tekshiruvi orqali beriladi.Ohirgi javob esa soliq xafvi past-pastlarga ro'yxatga olinadi va buni soliq organini raxbari yoki o'rinbosari bu qarorni

qabul qiladi. QQS sotmoqchi bo'lgan yuridik shaxs berganariga taqdim etilgan oydan keyingi oyni 1-sanasidan ro'yxatdan o'tgan hisoblanadi. Soliq xafvi o'rtacha bo'lganlarni ro'yxatdan o'tkazgandan so'ng soliq tekshiruvlarini olib boradi. Rad etilgan soliq to'loviga rad etilgan qarorni nusxasini chiqan 1 ish kunidan ortmasdan uning shaxsiy kabinetiga jo'natiladi. Shunda rad etilishiga sabab bo'lgan holatlarni to'g'irlab yana qayta jo'natishi mumkin yoki shu qaror bo'yicha sudga shikoyat qilishi mumkin. QQS to'lovchisini nomi yoki raxbarini familiyasi yoki ismi o'zgarsa uni qayta ro'yxatga olinadi va adliya vazirligidan kelib tushgan ma'lumot bo'yicha o'zgartiriladi lekin uni QQS raqami o'zgartirilmidi.

QQS ro'yxatan chiqarishda 2 ta holat bo'yicha boladi

QQS to'lovchisi –yuridik shaxs tugatilganda

QQS to'lovchisi-YTT tugatilganda

QQS ni ro'yxatidan chiqarish uchun soliq to'lovchi solig' idorasiga o'z ixtiyori bilan QQS ro'yxatidan chiqarish to'grisidagi arizasi va tadbirkorlik subyekti yagona reyستirdan chiqarganligi haqida ma'lumot va YTT tugatganlik haqidagi hujatlar.

QQS to'lovchisiligidan qadar yil boshidan aylanma soliq to'lashga o'tadigan 10 ish kunidan aylanmaga o'tish uchun ariza topshirgan tadbirkorlar ,tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyستiridan chiqarilgan kundan boshlab va YTT tugatgan kunidan lo QQS to'lovchiligidan chiqariladi va bu qarorni soliq organini boshlig'i yoki o'ribosari tomidan qabul qilinadi. QQS guvohnomasi to'xtatib turadigan holatlar mavjud bularga soliqqa arzi mavjud bo'lganda,3 oydan oshgan davrda moliya – xo'jalik faoliyatini yuritmaganda,soliq xavfi yuqori bo'lgan tadbirkolarni shubxali ishlarida yani kirib chiqan tavarlari bir-birga to'g'ri kelmaganda to'xtatib turiladi.Bunda guvohonamani avtamatik to'xtatib turiladi va unga ishning holati shaxsiy kabinetiga jo'natib turiladi va to'xtatib turilganini Davlat Soliq Qo'mitasinining veb-saytidan bilib olishiz mumkin, chunki bu ma'lumotlar yuklab boriladi.Bu borasida tadbirkor yuqori soliq organiga yoki sudga shikoyat qilishi mumkin.Va to'xtatib turgan paytidagi qilingan import tavarlar va ximatlar QQS sumalariga tuzatish kiritilmiydi yani qaytarib berilmaydi. QQS

guvohnomasi quydagi holarda bekor qilinadi; Soliq to'lovchisi soxta hujatlar bilan guvohnoma olganda, soliq tekshiruvida bank operatsiyalari kirgan chiqan tavarlar bir-biriga mos kelmaganda, soliq to'lovchisi soxta tabdirkorlik qilganda va boshqa shaxslarga QQS hisobga olishga yordam berganda. Guvohnomani bekor qilish soliq organi raxbari yoki raxbar o'rinbosari tomonidan qabul qilinadi. Va yana QQS guvohnomasini toxtatib turgan soliq to'lovchilar uni 9 oydan oshgan muddat davom etirmasa ham bu QQS guvohnomasi bekor bo'lishiga sabab bo'ladi. Bekor bo'lingan guvohnomalarni Davlat Soliq Qo'mitasi veb-saytida e'lon qilinadi. Guvohnomani Davlat Soliq Qo'mitasi ro'yxatdan o'tkazishda nizomga ko'ra guvohnoma shakinlantiradi va soliq to'lovchini ro'yxatga olish qarori chiqishi bilan 1 ish kunida elektron shakl shakinlantiradi va o'sha kuni soliq to'lovchini shaxsiy kabinetiga jo'natiladi. Guvohnomani ham elektron shakli shaxsiy kabinetiga jo'natiladi. Ro'yxatdan o'tgan QQS to'lovchilarini yagona hisob yurtishini taminlash uchun avtomatlashtirilgan restirga (identifikatsiyalashga oid: qo'shilgan qiymat solig'I raqami; yuridik shaxslar uchun — nomi; yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun — familiyasi, ismi, otasining ismi;) qo'shiladi. QQS to'lovchisining arizada ko'rsatilgan barcha ma'lumotlari kiritiladi masalan mazili pochta manzali raxbarining kimligi va boshqalar. Reystirda guvohnomani holati ham yoziladi to'xtatib turilgan, tugatilgan va faol. Reystirni shakillantirishda Davlat Soliq Qo'mitasining qilishi kerak bo'lgan ishlarga; guvohnoma raqamlarini kiristishi tashkiliy va metodologik ishlarini qilish barcha ma'lumotlarni shaffofligini ta'minlash 2 shaxsdan himoyalash uni ma'lumotlarini xavfsizligini ta'minlash va barcha soliq organlarga ko'rishi uchun avtomatlashtirish uni ma'lumotlarini. Ro'yxatdan o'tish davomidagi hujatlarni va ularni tekshirish paytida soliq to'lovchiga xabar bermasdan tekshirishi mumkin. Soliq organlari tekshirish uchun berilgan hujatlar kam bo'lganda hujatlarni talab qilib olishga haqli. Sayyor tekshiruvlar berilgan manzilar bo'yicha joyiga chiqib tekshirishga haqli. Davlat Soliq Qo'mitasi doimiy asosda soliq organlari tomonidan mazkur Nizomda nazarda tutilgan majburiyatlarning sifatli bajarilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentabrdagi 595-son qarori
<https://lex.uz/uz/docs/-5650010#-5658913>
2. Qodirjon o'g'li B. T., Nazarali o'g'li M. S. FISCAL POLICY AS THE PRIMARY TOOL TO AFFECT THE STRENGTH OF THE CAPITAL MARKETS //QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – T. 8. – C. 32-35.
3. Nazarali o'g'li M. S. SMALL AND MEDIUM-SIZED BUSINESSES (SMES) IN ASIAN NATIONS CAN BENEFIT FROM FINTECH'S EFFICIENT SOLUTIONS //World Economics and Finance Bulletin. – 2023. – T. 23. – C. 122-124.
4. Turanboyev, B., & Musabekov, S. (2023). Digital Transformation of Tax Systems. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(11-12).
5. Qodirjon o'g'li, B. T., & Nazarali o'g'li, M. S. (2023). FISCAL POLICY AS THE PRIMARY TOOL TO AFFECT THE STRENGTH OF THE CAPITAL MARKETS. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 8, 32-35.
6. Qodirjon o'g'li, B. T., & Nazarali o'g'li, M. S. (2023). FISCAL POLICY AS THE PRIMARY TOOL TO AFFECT THE STRENGTH OF THE CAPITAL MARKETS. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 8, 32-35.
7. Po'latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.